

ISTIQLOL DAVRI O'ZBEK QISSACHILIGIDA AYOL RUHIYATINING BADIY  
TALQINI

Axmedova Hafiza Hakimovna

Buxoro muxandislik-texnologiya instituti litseyi bosh o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada hozirgi o'zbek adabiyotida ayol obrazining yaratilishi masalasi umumbashariy va milliy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan, ma'nani va ruhan yangilanayotgan qahramonlar sifatida o'zligini namoyon etuvchi jihatlari ko'rsatib o'tilgan. Ayol obrazining o'ziga xos xususiyatlari, uning estetik ta'sirdorligini, hayotiyligini ta'minlovchi omillarga e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari asarlarda ayollar obrazi va uning o'ziga xos jihatlarini tahlilga tortilgan va muallif o'z munosabatini bildirgan. Ayollar obrazining adabiyotda o'rni nechog'li muhim ekanligi maqolada asarlarning tahlili orqali ham yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** ayol, ona, obraz, genezis, tadrijiy rivojlanish, badiiy adabiyot.

**Аннотация:** В статье рассматривается проблема создания образа женщины в современной узбекской литературе. Этот образ воплощает в себе общечеловеческие и национальные ценности, входит в категорию героев, обновляющихся умственно и духовно. В статье особое внимание уделено эстетическим и жизнеутверждающим чертам образа женщины. На примере произведений автор анализирует образ женщины и его специфические стороны, выражает свое отношение вопросу, а также подчеркивает значение образа женщины в литературе.

**Ключевые слова:** женщина, мать, образ, генезис, постепенное развитие, художественный вымысел.

## KIRISH

Jahon adabiyotshunosligida badiiy asar tahliliga doir muammolarni psixoanalitik jihatdan o'rganish va uni anglash zarurati gumanitar sohalarda ham jiddiy masalalarni kun tartibiga qo'ymoqda. Ayniqsa, filologiya sohasida g'oyaviy pishiq, mazmunan mukammal, sifat jihatidan o'ta yangi ilmiy izlanishlar olib borish uchun imkoniyatlar yaratildi. Epik turning qissa janriga xos adabiy va badiiy kanonlar, ularda tasvirlanayotgan ajib xilqat iztiroblari, uning serqatlam ruhiy dunyosini tadqiq etish bilan bog'liq tadqiqotlar izchillik bilan davom ettirib kelinmoqda. Ayol psixologiyasini tahliliy o'rganish insonning ma'naviy olami, dunyoqarashi, tafakkur tarziga xos qonuniyatlarni kashf etishda muhim. Adabiy jarayon doimo ijtimoiy muhit, adabiy-ma'naviy, madaniy hayot bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi. Zero, bashariyatning ongu tafakkuri, ruhiyatidagi yangilanishlar, asosan, adabiyot va san'atda o'z aksini topadi. Bunda adabiyotshunoslik fani ham o'z ob'ektiga yangi nigoh bilan qarash, ayol ruhiyatiga oid muammolarni chuqurroq anglash yo'lidan bordi. Dunyo adabiyotshunosligida qissachilikning zamонавији nazariyasi uning oldingi

davrillardagi tarixiy evolyusiyasini yangicha anglashga mo'ljallangan. Badiiy adabiyotda ayolning ruhiy dramalarini to'laqonli aks ettirishda jahon nasrining ilg'or ijodiy tendensiyalariga xos jihatlar namoyon bo'layotir. Adabiy jarayonda ayolning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, uning sohir tuyg'ulari, inja va murakkab ruhiy olamini tasvirlashda falsafiy - psixologik, ramziy-majoziy obrazlilik ustunlik qilmoqda. Bunda eng muhim vazifa muayyan xilqat ruhiyati, tasvir va ifodaning yangicha talqini bilan bog'liq. Ishda adabiyot taraqqiyotida ayolning o'rni va ahamiyatini ko'rsatish muhim muammo sifatida qo'yildi. Darhaqiqat, ayol psixologiyasi muammosini o'rganish muayyan davr prozasining badiiy poetik ko'lamenti belgilashda ham muhimdir. Istiqlol davri o'zbek adabiyotshunosligining xalqaro maydondagi o'rni va milliy madaniy merosini tadqiq etish, qadriyatlarni anglash zarurati bugungi globallashuv jarayonida badiiy adabiyotning mohiyatiga yanada chuqur kirib borish, badiiy asarlarning jahon adabiyoti rivojidagi munosib o'rnini asoslash, keyingi davr adabiyotiga kuchli ta'sir o'tkazgan ijodkorlar merosini o'rganishni taqozo etmoqda. Bugungi madaniy-ma'rifiy sohalardagi islohotlar jarayoni o'zbek adabiyotshunosligi oldiga ham qator yangi vazifalar qo'ymoqda. "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga innovatsiyaga tayangan davlat yutadi". Bu jarayonda muayyan xalq badiiy tafakkuri mahsulining insoniyat ma'naviy olamini yuksaltirishdagi o'rni va ahamiyati uning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

### ASOSIY QISM

O'zbek adabiyotshunosligida qissa janrini o'rganish XX asrda boshlandi. Ilmiy adabiyotlarda qissa bilan povest atamalari ikki tildagi bir janrning muqobili deb qaraladi. Janr genezisi, tarixiy taraqqiyotida, tabiiyki, mushtaraklik va farqli jihatlar bor. Bu atamalardan birining qamrovi torroq, ikkinchisini kengroq ekanini isbotlash muammo. Adabiyotshunoslikning muayyan davrlarida ba'zi tanqidchi va adabiyotshunoslар bahstalab mulohazalar bildirishgan. Adabiyotshunos olim A. Abrorov: janr evolyusiyasi haqida: "Povest janri qobig'ida yangi prozaik janr - qissachilik paydo bo'ldi", desa, S. Mirvaliev bu ikki termin bir atamaning muqobili emas, degan fikrni o'rtaga tashlaydi: "...qissa mazmuni ichki hajmi jihatidan endilikda povest tushunchasi mazmunini o'zida ifodalay olmayotganga o'xshaydi. Oqibatda qissa hikoya bilan povest janri o'rtasidagi mustaqil janr bo'lib qolmoqda". A.Abrorov fikrida davom etib: "Obid ketmon" asarida roman va povest janrining xususiyatlari chog'ishib, birikib ketgan. Aniqrog'i, bu ikki janr o'rtasidagi gibrid asar sifatida maydonga kelgan", degan xulosaga keladi. Akademik Izzat Sulton "...povestning qissadan farqlari ham bor: avval aytilganidek, "qissa" ko'pincha ishqiy mazmunga ega, hozirgi zamon povestida esa ishqiy liniyaning bo'lishi shart emas". Nazariyotchi olim 80-yillarda qissa janrining ilmiy tabiatni, rus va o'zbek adabiyotidagi namunalari, shuningdek, qissa janrining "povest" termini bilan aloqadorligi haqida aniq ilmiy mulohaza yuritgan. Bu o'rinda qissa janri xususida maxsus ilmiy izlanish olib borgan A'zam Qozixo'jaev qissa

janrining sho'ro adabiyotidan emas, aslida sharqda islomiy dunyo adabiyotida yaratilgan diniy qissalarning ahamiyati haqida nihoyatda jo'yali fikrlar bildiradi. Adabiyotshunoslik qissa atamasiga tarixiy, nazariy, zamonaviy aspektda qaraydi. Bunday qarashlar qorishiq holda bir-birini to'ldirib keladi. Demak, "qissa" so'zi o'zbek adabiyotiga islom dini orqali arab tilidan o'tgan va istilohiy ma'no kasb etgan. Xususan, Qur'oniy qissalarning atama va janr ibtidosida alohida o'rni mavjud. Qissa janri spesifikasiga nazar tashlasak, aynan, ilohiy mohiyatga yaqinlashib kelgan qissalar epik turning yorqin namunasi sifatida ko'zga tashlanishi kuzatildi. Qissaning bu oliv ko'rinishi barcha zamon qissalari uchun namuna vazifasini o'tashi mumkin. O'zbek adabiyotida qissa janrining adabiy istiloh sifatida paydo bo'lishi, shuningdek, janr sifatida vujudga kelishi xalq mifologiyasidan tashqari, din bilan bog'lanadi. Mazkur tadqiqotda o'zbek adabiyotshunosligida qissa janrining takomili va undagi zamonaviylik, haqqoniylik, badiiy mahorat masalalarini izchil o'rganish maqsad qilingan.

Badiiy adabiyot, haykaltaroshlik, rassomchilik, miniatyura, raqs, teatr, kino va turli san'at turlarining barchasida ayol obrazi markaziy o'rinda turadi. Hatto Islom dinining muqaddas kitobi "Qur'oni karim"da ayollarga bag'ishlangan eng katta suralardan birining nomi "Niso" deb ataladi. Mazkur sura ayollarga zulm o'tkazmaslik, ularning haq-huquqlarini himoya qilish uchun nozil bo'lgan. Ilmiy kuzatishlar natijasida, qardosh xalqlar va rus hamda Sharq xalqlari adabiyotshunosligida olib borilgan tadqiqotlarda mavzuga daxldor anchagina ishlar qilingani kuzatildi. Xususan, mavjud ilmiy materiallarning mazmun-mundarijasi shuni ko'rsatadiki, ayol obrazining san'at va adabiyotdagi badiiy talqini, ayolllarning jamiyatda tutgan o'rni masalasi adabiyotshunoslik, psixologiya, falsafa, tarix, siyosatshunoslik, san'atshunoslik kabi turfa fanlarning ham o'rganish ob'ekti bo'lganini ko'rish mumkin. Arab tadqiqotchisi A.A.Xalaf "Arab san'atida ayollar obrazi" maqolasida shunday yozadi: "Sharq san'atida ayol obrazi markaziy o'rinni egallaydi. Ammo bu obraz ko'p ma'nolarga ega bo'lib, turlicha talqin qilinadi. Bir tomondan, u ayolni ma'naviy yuksak darajada bo'lsa-da "narsa" sifatida, ammo dunyoviy sevgining timsoli sifatida tasvirlaydi. Ikkinchи tomondan, ayolga nisbatan dunyoviy sevgi Allohga muhabbat ramzini ifodalaydi. Va bu ikkinchi xususiyatda ayol tasviri ayniqla she'riyat va tasviriy san'at sintezida keng qo'llanilgan". Tadqiqotchi musulmon Sharqida mashhur bo'lgan mumtoz shoirlar Sa'diy, Hofiz Sheroziylar, shuningdek, Sharq ayolining go'zalligini ta'riflagan Gyote, Bayron Qozixo'jaev A. she'riyatini qisqacha tahlil qilib, Sharq mifologiyasi va folklorida ayol obrazini so'zga chechan, aqli, uddaburon, go'zal suhbatdosh, ertakchi va matalchi Shahrizoda qiyofasida yaratilganini keltiradi: "Mukammal ayol siymosiga benuqson zukko notiqlik kabi sifat ham qo'shiladi. Sharq mifologiyasi, tarixi va adabiyotidan biz ko'plab ajoyib hikoyachi, zukko hamsuhbatlarni bilamiz va ulardan asosiysi Shahrizodadir". Olim Sharq nazmidagi ayol ramziy xususiyatga ega bo'lsa-da, jahon adabiyotini, musiqasini, rassomchilik va nazmini yorqin ayollik xarakteri bilan boyitgani, ayol go'zalligi uchun oyyuzli, ohuko'zli, shirinso'z, sarvqomat singari

epitetlar yaratilib, doim vazmin yevropaliklarning e'tiborini tortganini ta'kidlaydi, shuningdek, sharq musulmon san'atida ayol obrazini suratda akslantirish taqiqlangani, XIX asrga kelibgina, ayollar suratini chizish boshlanganini arab rassomlari ijodi misolida tahlilga tortadi.

Ayol har qancha aqlli, erkaklardan-da ishbilarmon bo'lmasin, ruhiyatida ayol bo'lib yashashi, barcha ayollar kabi mehrga tashna, suyilishni istovchi, pok muhabbatga talpinuvchi ayol ekanligiga urg'u beradi. Adib o'zbek ayolining dardiztirobi, ruhiyatiga xos ma'sumalik, ko'nuvchanlik, mutelik ortida bir qator hayotiy muammolar turishini talqin etar ekan, ularning tashqi qiyofasini xam nazardan chetda qoldirmaydi, ularning yurish-turishini, qilayotgan ishlari, gapirgan gaplariyu qilig'igacha batafsil qahramon xarakteri va fazilatiga mos ravishda talqin etadi. A.Yo'ldosh asarlaridagi ayollar obrazi ham nihoyatda rang-barang. Yozuvchi ularning xilma-xil xususiyatlariga diqqatni qaratadi. Biri ishbilarmon, boshqasi soddadil, ishonuvchan, o'z ismiga yarasha munis ayol; yana ayrimlari savdogar, tovlamachi va hokzo. Ammo barcha ayollar hayotda yaxshi yashash uchun, to'kislik, o'zi tushungan baxt sari intiladi. Bu Nozima ("Otchopar"), Munisa ("Timsohning ko'z yoshlari"), Oysuluv ("Alvido, go'zallik"), Oliya ("Kampirning dardi") kabi ayollarga xos umumiy jihat ularning mehnatkashligidir. Ular savdogarmi, jurnalistmi, kolxozchimi, tarjimonmi, zahmatli mehnati orqali o'z orzulariga erishishga intilishadi. Ular jamiyatimizning turli jabhalarida ishlab, kun kechirayotgan ayollarning ramziy obrazlaridir. Go'zal ("Bir tun va bir umr") ko'p jihatdan Nozima («Otchopar») bilan Munisadan («Timsohning ko'z yoshlari») farq etadi. Go'zal o'z mavqeい, jamiyatdagi o'rnni belgilashda har qanday jirkanch, nohalol yo'ldan qaytmaydigan ayollardan biri. Nozima esa Go'zaldan farqli ravishda pul, boylik ortirish yo'lidagi intilishlarida e'tiqodiga xiyonat qilmaydi, hayotiy prinsiplariga sodiq qoladi. Asarda Nozimaning o'z e'tiqodi bilan orzu-havaslari o'rtasidagi ziddiyat birmuncha sillqlashtirib talqin qilingan. Jinoyatchi qotil ayollarning or-nomus uchun kurashib, ruhiy kasallik tufayli qotilga aylanishi X.Do'stmuhammadning "Chayongul", A.Yo'ldoshning "O'n uchinchi uy", Sh.Bo'taevning "Shohona sovg'a" asarlarida yetarli darajada o'z aksini topgan. Xurshid Do'stmuhammad tasodifiylik badiiy shartli vositasidan unumli foydalansa, Sh.Bo'taev Ayolning ruhan nosog'lomligi tufayli jinoyatga qo'l urishini teran aks ettirishga erishadi. Keltirilgan qissalar tahlilida qahramon tabiatи va asarda tutgan badiiy vazifasi aniqlanib, muallif adabiy-estetik qarashlari asosida qo'yilgan muammoga yechim topildi.

### XULOSA

Ayollar obrazi hozirda turli fanlar va san'atning barcha turlarida (kino, teatr, haykaltaroshlik, rassomchilik, raqs, badiiy adabiyot, san'atshunoslik. psixologiya) muhim muammo sifatida o'rganilmoqda. Zero, ayol naslni davom ettiruvchi jins, go'zallik, aql va donishmandlik timsoli sifatida qadim zamonlardan beri o'rganib kelinadi. Hozirgi o'zbek qissachiligidagi ayol ruhiyati badiiy talqini mavzusi bilan bog'liq jarayonlar aslida xalq ijodi, qolaversa, samoviy kitob "Qur'oni karim" kabi diniy

manbalar bilan bog'lanadi, "Qur'oni karim"dagi maxsus oyat va suralar ("Niso" surasi va boshqa suralardagi fikrlar)da ayollarning haqhuquqlari himoya qilingan, ularning yashashi uchun, islomdan oldingi davrda mavjud bo'lgan johiliyaga barham berilgan. Ma'rifatli islom dini bunday johilliklarni to'xtatgani tahlillar orqali asoslandi. O'zbek qissachiligidagi yaratilgan ayollar obrazi va uning inja ruhiyatini badiiy talqin etish XX asr tongidan boshlandi. Bir qator iste'dodli adiblar qissalarida ayolning sho'ro tuzumidagi ijtimoiy lashgan faol qiyofasi yoritildi. O'zbek ayolining turfa qiyofalari yuz yildan ziyod o'zbek qissachiligi taraqqiyotida namoyon bo'ldi. Ezilgan, haq-huquqsiz ayollar, mafkuralashgan jamoatchi ayol, ziyoli, erkin fikrli ayol qiyofalari hozirgi o'zbek qissachiligining yetuk vakillari tomonidan havola etildi. X.Do'stmuhammad, N.Eshonqul, Shoyim Bo'taev, Bahodir Qobul qissalarida ayol obrazi va uning sohir ruhiy olami ham an'anaviy realistik uslubda, ham noan'anaviy modern uslubda teran aks ettirildi. Istiqlol davridagi qissalarda kayvoni o'zbek onaxoni, kampirlar, qasoskor ayol timsolini mifologik ramziylik konseptida botiniy iztirob va mag'lubiyatda ayolning ma'naviy yuksalish hamda g'alabasi badiiy aks etgani asoslab berildi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Shayxzoda M. Navoiy ijomida ayol obrazi. – Toshkent, Adabiyot va san'at, 1972. – B. 58–68.
2. O'razbaeva M. Hozirgi o'zbek romanchiligidagi ayol obrazi va uning qiyosiy tahlili. PhD diss. – Toshkent. 2021. – B. 17. Abdullaeva Sh. Alisher Navoiyning xotin-qizlar haqidagi gumanistik fikrlariga doir (Xamsa asarida). Filol. fan. nomz...diss. – Toshkent, 1954. – 119 b.
3. Yoqubov I. Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi. – Toshkent: 2018. – B. 256.
4. Fitrat. Tanlangan asarlar. 4-jild. Toshkent: Ma'naviyat, 2006.-B.17.
5. Qo'shjonov M. Hayot va mahorat. Toshkent, 1962. –B.16.
6. Sodiqova T. Ayolga qasida. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2008. – B. 326.
7. Yakubov I. Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi. Filol. fan.d- ri... diss. – Toshkent. 2018. – B. 281–293.